

.....
MATEMATIKA
.....

**YOSH
IQTIDOR
EGALARI
UCHUN**

1
QISM

G'afforov Sardor
Jumanazarov Xoshim
Mirzayev Nodir
Ahadov Abduqodir

MATEMATIKA

I qism

Buyurtma berish uchun quyidagilarga murojaat qiling:



(99) 968 44 00



@IDC_books

Mundarija:

1.	Raqamlar va natural sonlar	4
2.	Xona birliklari	11
3.	Natural sonlarni qo'shish va ayirish	22
4.	Natural sonlarni ko'paytirish va bo'lish	37
5.	Masalalar yechish	50
6.	Vaqtga doir masalalar	59
7.	Yoshga doir masalalar	67
8.	Uzunlikka doir masalalar	73
9.	Og'irlikka doir masalalar	83
10.	Natural sonlarni taqqoslash	93
11.	Natural sonlarni yaxlitlash va sonlar o'qi	104
12.	Yig'indiga doir masalalar yechish	112
13.	Ayirmaga doir masalalar yechish	120
14.	Ko'paytma va bo'linmaga doir masalalar yechish	124
15.	Qoldiqli bo'lish	131
16.	Harakatga doir masalalar	143
17.	Harakatga doir masalalar 2-qism	152
18.	Masalalar yechish	159


"Yosh iqtidor egalar uchun" Matematika kitoblarimizni takrorlash uchun testlarni ushbu QR-kod orqali olishingiz mumkin.



1. Raqamlar va natural sonlar

Sinf ishi:

- 1 Sardor 1 raqami bilan boshlanadigan ikki xonali sonlarni doskaga yozdi. Doskada hammasi bo'lib nechta son yozildi?
- 2 Hoshim 0 raqami bilan tugaydigan ikki xonali sonlarni turli rangli qalamlarda yozmoqchi. Hoshimga jami nechta rangli qalam kerak bo'ladi?
- 3 Nechta uch xonali son 1 raqami bilan boshlanib 0 raqami bilan tugaydi?
- 4 Nechta ikki xonali son bir xil raqamlardan iborat?
- 5 Quyida berilgan raqamlardan bir martadan foydalanib eng kichik olti xonali son yozing.



- 6 1 va 2 raqamlaridan foydalanib, nechta turli raqamli ikki xonali son yozish mumkin?
- 7 Quyida raqamlar yozilgan to'plar berilgan. To'plarni yonma-yon qo'yib nechta turli ikki xonali sonlar tuzish mumkin?



- 8 3, 0 va 8 raqamlaridan foydalanib, nechta turli raqamli ikki xonali son yozish mumkin?
- 9 1, 2 va 4 raqamlaridan foydalanib, nechta turli raqamli ikki xonali son yozish mumkin?
- 10 2, 3 va 0 raqamlaridan foydalanib, nechta turli raqamli uch xonali son yozish mumkin?
- 11 Behruz quyidagi kartochkalar orqali jami nechta turli raqamli uch xonali son hosil qila oladi?



1. RAQAMLAR VA NATURAL SONLAR

- 3 A mamlakatda mashinalar uch xonali sonlar bilan raqamlanadi. Mamlakat deputatlaridan biri qora rangdagi mashinalarni raqamlashda birinchi raqam 7, oxirgi raqam esa 9 bo'lishi zarurligi taklifini berdi. Agar deputat taklifini qonunchilik palatasi ma'qullasa, mamlakatda ko'pi bilan nechta qora rangli mashinani raqamlash mumkin?
- 4 Barcha raqamlari bir xil bo'lgan sonlar "chiroyli son" deyiladi. Uch xonali chiroyli sonlar nechta?
- 5 Quyida berilgan sharlarni ketma-ket qo'yib, eng kichik besh xonali son hosil qiling.



- 6 3 va 5 raqamlaridan foydalanib nechta turli raqamli ikki xonali son yozish mumkin?
- 7 Quyida raqamlar yozilgan to'plar berilgan. To'plarni yonma-yon qo'yib nechta turli ikki xonali son hosil qilish mumkin?



- 8 Jamshid 01.02.2012-yilda tug'ilgan. Shuning uchun u 0, 1, 2 raqamlarini yaxshi ko'radi. Jamshid bu raqamlarni takrorlamasdan nechta ikki xonali son yoza oladi?
- 9 3, 4 va 5 raqamlaridan foydalanib nechta turli raqamli ikki xonali son yozish mumkin?
- 10 5, 2 va 0 raqamlaridan foydalanib nechta turli raqamli uch xonali son yozish mumkin?
- 11 Avaz quyida berilgan kartochkalar orqali jami nechta turli uch xonali son hosil qila oladi?



- 12 0 va 5 raqamlaridan foydalanib, nechta ikki xonali son yozish mumkin (raqamlar takrorlanishi mumkin)?

1. RAQAMLAR VA NATURAL SONLAR

33 800 dan 1200 gacha bo'lgan sonlar bir qatorga yozilganda 7 raqami necha marta ishtirok etadi?

34 Jadval bo'sh kataklariga 1,2,3,4 raqamlarni shunday joylashtiringki, bunda har bir ustun va har bir qatorda bir xil raqamlar ishtirok etmasin. X o'rnida qanday son bo'lishi kerak?

4			
		3	
3			2
		1	X

35 Barcha uch xonali sonlar bir qatorga yozilganda 6 raqami necha marta ishtirok etadi?

Mavzuga doir testlar

1 22300332215223 sonini yozishda nechta turli raqamlardan foydalanilgan?

A) 3 B) 4 C) 5 D) 6

2 Quyidagi sonni yozishda barcha raqamlardan nechtasi ishtirok etmagan?

1 9 9 4 0 1 0 7

A) 6 B) 5 C) 4 D) 3

3 Shunday raqam borki, uning uchtasining yig'indisi bir xonali, to'rttasining yig'indisi esa ikki xonali son bo'ladi. Shu raqamni toping.

A) 2 B) 3 C) 4 D) 0

4 Yozuvida 1 ham, 5 ham ishtirok etgan 300 dan kichik natural sonlar nechta?

A) 22 B) 20 C) 24 D) 23

5 2, 3, 1, 5, 0 raqamlarining barchasidan bir martadan foydalanib tuzilgan eng kichik besh xonali sonni toping.

A) 01235 B) 110235 C) 1023 D) 10235

2. XONA BIRLIKLARI

2. Xona birliklari

Sinf ishi


- 1 Quyidagi rasmda berilgan sonning raqamlari yig'indisini toping.



- 2 Quyidagi rasmda berilgan sonning raqamlari ko'paytmasini toping.




- 3 Yuzlar xonasidagi raqami 5, o'nlar xonasidagi raqami 3, birlar xonasidagi raqami 2 bo'lgan sonni toping.
- 4 Yuzlar xonasidagi raqam 3, birlar xonasidagi raqam 0, o'nlar xonasidagi raqam 5 bo'lgan uch xonali sonni toping.
- 5 Sardor aka 1994-yilda tug'ilgan. Bu yilning o'nlar xonasidagi raqami minglar xonasidagi raqamidan nechtaga ortiq?
- 6 Quyida kompyuterning do'kondagi narxi ko'rsatilgan. Kompyuter narxining o'nlar xonasidagi raqam yuzlar xonasidagi raqamdan nechta ortiq?



2. XONA BIRLIKLARI

- 11 Hoshim quyida berilgan figuralarni ketma-ket qo'yib, besh xonali son yozmoqchi. U dastlab to'rtburchaklardan, keyin esa aylana figuralardan foydalanadi. Figuralar bir nechta bo'lganda dastlab eng katta raqamli figurani yozadi. Hoshim bunday tartibda qanday son yozishi mumkin?



- 12 Quyida bir nechta raqamlar yozilgan rangli sharlar berilgan. Saidazim sharlar ketma-ketligini o'zgartirib, 5 xonali son hosil qildi. Dastlab u eng boshiga qizil, keyin esa ko'k rangli sharlarni qo'ydi. So'ngra yuzlar xonasiga 2 raqamli sharni, birlar xonasiga esa yashil rangli sharni qo'ydi.



Saidazim qanday son hosil qilgan?

- 13 Abdushukur telefon paroliga turli raqamli eng katta to'rt xonali sonni tanladi. Bu sonning minglar va o'nlar xonasidagi raqamlari yig'indisini toping.



- 14 Raqamlari turlicha bo'lgan eng kichik ikki xonali va eng kichik uch xonali sonlar ko'paytmasini toping.

3. NATURAL SONLARNI QO'SHISH VA AYIRISH

15 Quyidagi hisoblashlar to'g'ri bajarilganda, so'roq belgisi o'rniga qaysi son bo'ladi?

				0				
				+				
2	+	1	=					
		+			=			
			-		=	?		
		=						
		9						

16 Quyidagi yig'indiga ko'ra, belgilar o'rnida bo'lishi mumkin bo'lgan raqamlar yig'indisini toping.

4	2	☆	5	□	
+	2	♣	7	4	1
6	9	5	0	0	

17 Quyidagi ayirmaga ko'ra, noma'lum sonning birlar va minglar xonalari orasidagi raqamlar yig'indisini toping.

8	2	7	6	5
-	••••	••••	••••	••••
2	5	8	9	3

3. NATURAL SONLARNI QO'SHISH VA AYIRISH

- 9 Xo'jalikdagi tovuq, o'rdak, kurka va g'ozlarning umumiy soni 300 ta. Tovuqlar o'rdaklardan 24 ta, g'ozlardan esa 56 ta ko'p. Agar tovuqlarning soni 120 ta bo'lsa, xo'jalikda nechta kurka bor?
A) 30 B) 22 C) 37 D) 20

- 10 Mening bobom ertaklar, hikoyalar va she'rlar yozadi. Bobomning ertak va hikoya kitoblari jami 95 ta, ertak va she'riy kitoblari jami 50 ta. Bobomning 15 ta she'riy kitoblari bo'lsa, bobomning hikoya kitoblari soni nechta?



- A) 50 B) 60 C) 70 D) 55

- 11 Quyidagi keltirilgan 1-kalkulyatorda Yunus " $423+491=$ " tugmalarini bosish orqali qo'shishni bajaradi. Uning raqamlarni bilmaydigan ukasi Ali esa ikkinchi kalkulyatorida Yunus bosgan tugmalar bilan bir xil o'rinda turgan tugmalarni bosdi. Uning ukasi tomonidan topilgan natija bilan Yunusning natijasi orasidagi farq nechaga teng?



- A) 12 B) 22 C) 27 D) 15

18. MASALALAR YECHISH

- 3 Olim bir son o'yladi. O'ylagan sonidan 44 ni ayirib, hosil bo'lgan ayirmani 7 ga ko'paytirdi va natijaga 12 ni qo'shdi. Agar hosil bo'lgan yangi natija 54 ga teng bo'lsa, Olim o'ylagan sonni aniqlang.
A) 50 B) 55 C) 45 D) 35
- 4 Men va akamda bir qancha pul bor edi. Pulimizning hammasini ishlatib yubormasligimiz uchun oyim mendan ham, akamdan ham pulimizning yarmini va yana 1000 so'm olib qo'ydi. Shundan so'ng, menda 12000 so'm, akamda esa 14000 so'm pul qoldi. Dastlab, ikkalamizda jami necha so'm pul bor edi?
A) 56000 B) 49000 C) 60000 D) 66000
- 5 Likopchada bir nechta mandarin bor edi. Xurshid mandarinlarni yarmini va yana 2 ta mandarin yegandan so'ng, likopchada 11 ta mandarin qoldi. Dastlab, likopchada nechta mandarin bo'lgan?
A) 16 ta B) 20 ta C) 23 ta D) 26 ta
- 6 Ikkita kitob javonida bir xil sondagi kitoblar bor edi. Nargiza birinchi javondan 13 ta, ikkinchi javondan esa 8 ta kitob oldi. Shundan so'ng ikkala kitob javonidagi kitoblar soni birgalikda 25 ta bo'lib qoldi. Dastlab, har bir kitob javonida nechtadan kitob bo'lgan?
A) 46 ta B) 29 ta C) 23 ta D) 36 ta
- 7 Uchta mashina to'xtash joyida bir nechta mashinalar bor edi. Birinchi to'xtash joyidan 3 ta, ikkinchisidan 2 ta, uchinchisidan esa 5 ta mashina ketdi. Shundan so'ng har bir to'xtash joyida mashinalar soni teng bo'lib qoldi. Dastlab, qaysi to'xtash joyida mashinalar soni eng ko'p bo'lgan?
A) 1-da B) 2-da C) 3-da D) To'g'ri javob yo'q
- 8 Fermada jami 30 ta sigir, qo'y va tovuqlar bor edi. Fermer 4 ta sigir va 5 ta qo'y sotib, o'rniga 3 ta sigir va 3 ta tovuq sotib oldi. Shundan so'ng, fermadagi sigir, qo'y va tovuqlar soni teng bo'lib qoldi. Fermada, dastlab, nechta qo'y bo'lgan?
A) 9 ta B) 10 ta C) 6 ta D) 14 ta
- 9 Metroning 4 ta vagoni bor. Birinchi bekatda har bir vagondagi yo'lovchilarning yarmi va yana bitta yo'lovchi, ikkinchi bekatda esa qolgan yo'lovchilarning yarmi va yana 2 ta yo'lovchi tushdi. Shundan so'ng birinchi vagonida 10 ta, ikkinchi vagonida 11 ta, uchinchi vagonida 12 ta va to'rtinchi vagonida 13 ta yo'lovchi qoldi. Dastlab, metroda jami nechta yo'lovchi bor edi?(Bekatlardan metroga yo'lovchilar chiqmagan deb hisoblang.)
A) 220 ta B) 224 ta C) 228 ta D) 232 ta
- 10 G'anisher bir son tanladi. U tanlagan sonini navbat bilan 2, 3, 4, 5 sonlarining qaysidir biriga ko'paytirdi, bo'ldi, qo'shdi va ayirdi(amallarni bajarish tartibi turlicha bo'lishi mumkin). Bunda har bir son va har bir amal bir martadan ishtirok etdi. Agar G'anisher oxirida 9 sonini hosil qilgan bo'lsa, dastlab, u eng ko'pi bilan qanday son tanlagan bo'lishi mumkin?
A) 35 B) 9 C) 25 D) 14